



# Buyuk ipak yo‘li.



TILAME

## Badiiy uslub.



Fan- O‘zbek tili

O‘qituvchi- Kamaliddinova  
Nigora Sirajiddinovna



## REJA:



TILAME

- 1 • Buyuk ipak yo‘li
- 2 • Buyuk ipak yo‘lining  
ahamiyati
- 3 • Nutq uslublari. Badiiy uslub
- 4 • Topshiriqlar ustida ish



Bizning ko‘chamiz  
Buyuk ipak yo‘li deb  
nomlangan. Bu nimani  
anglatadi? Vatanimiz  
xalqlari tarixida Buyuk  
ipak yo‘li katta  
ahamiyatga ega bo‘lgan.  
Bronza davrida ham  
hududlarni bog‘lovchi  
yo‘llar bo‘lgan.

Miloddan avvalgi V  
asrlarda, Eron  
ahamoniylar sultanati  
davrida uning hududini  
bog‘lab turuvchi «shoh»  
yo‘li bo‘lgan.



TIIAME



IX-X asrlarda karvon savdosi Janubi-Sharqiy Yevropani Markaziy Osiyo, Eron va Kavkaz orqali Mo‘g‘uliston va Xitoy bilan bog‘lagan.

Rus savdogarlari Markaziy Osiyoning kumush pullarini yaxshi ko‘rishgan. Shosh viloyati o‘rta asrlarda chekka o‘lkalarga charmidan ishlangan buyumlar, ot terisidan ishlangan egarlar, qog‘oz va g‘alla chiqargan. Shu viloyatga qarashli Iloq konlaridagi kumushning dovrug‘i butun Yevropaga mashhur edi.


Buyuk ipak yo‘li o‘rta asrlarda  
Sharqdan G‘arbgacha ulkan  
savdo yo‘li bo‘lgan.

Buyuk ipak yo‘li qadimda va o‘rta asrda Sharq va G‘arb mamlakatlarini ilk bor o‘zaro bog‘lagan qit’alararo karvon yo‘lidir. Mamlakatlar o‘rtasida qimmatbaho mahsulotlar, savdo-sotiq ishlari, xitoy ipagi Buyuk ipak yo‘li orqali olib borilgan. Markaziy Osiyo va Yevropada o‘zbek, qozoq, tojik, qirg‘iz, turkman savdogarlarini millatidan qat’i nazar bir nomda «Musulmon savdogarlari» deb atashgan.



Xitoyda musulmon savdogarlari molni molga ayirboshlashsa, Yevropada ularning kumush tangasi pul bo‘lib ham, tovar bo‘lib ham xizmat qilgan. X asrda savdo-sotiqda cheklar qo‘llanilgan. Pul muayyan shaharda savdogarlarning ishonchli kishisi - sarrofga berilib, undan tegishli hujjat - chek olingan.





«Qutadg‘u bilig» asari muallifi Yusuf Xos Hojib Bolasog‘uniy savdogarlarning jamiyatdagi o‘rnini ta’riflab: «Agar karvonlar savdo qilmay qo‘ysalar, sen o‘n minglarcha qimmatbaho narsalarni qayerdan olasan? Savdo ahllari bilan chiqish, ularga o‘z eshicingni ochib qo‘y», - degan edi.



TIIAME

**Bilib oling.** Voqelikni badiiy obrazlar vositasida aks ettiradigan, badiylikka, ifodalilikka, ta'sirchanlikka boy bo‘lgan uslub *badiiy uslub* deb ataladi. Badiiy uslubda yoziladigan asarlar quyidagi turlarga bo‘linadi: nasr - proza janrida yoziladigan, nazm - she’riy va dramatik asarlar. Bunday asarlarda uslubiy bo‘yoqdor va ko‘chma ma’noli so‘zlar ko‘p qo‘llanadi.

Badiiy uslub *aralash uslub* hisoblanadi. Chunki bu uslubda so‘zlashuv va kitobiy uslublarga xos o‘rinlar ham uchraydi. Badiiy asar kishiga ma’lumot berish bilan birga timsollar vositasida estetik ta’sir ham ko‘rsatadi.

Masalan: *Kumush qish o‘z o‘rnini fasllar kelinchagi bahorga bo‘- shatib berdi.*



## 1-mashq. Gaplarni o‘qing va yozing.

Gaplarning qaysi uslubda yozilganligini aniqlang.

1. Zamaxshariyning o‘lmas asarlari unga shuhrat keltirdi.
2. Bahor keldi, daraxtlar bezandi.
3. Osmonda rang-barang kamalakning yoyi ko‘rindi.
4. O‘rmonlarni yashil boylik deb atash mumkin.
5. Atirgulni gullar malikasi deyishadi.
6. Butun tabiat porlab turgan quyoshga kulib boqdi.
7. Ko‘lning suvi tip-tiniq oynaday yaltiraydi.
8. O‘lkamizga fasllar kelinchagi bo‘lmish bahor o‘z sepini yoydi.



TIIAME





TIIAME

**2-mashq.** Nuqtalar o‘rniga foydalanish uchun berilgan so‘zlardan mosini qo‘yib yozing. Uslubiga e’tibor qarating.

1. Suv uzoq-uzoqlarga ... boradi. 2. Sigir ko‘p pichan, o‘tni sevib ... . 3. Qishda daraxtlar... o‘raladi va xayol surib turganday tuyuladi. 4. Kutubxona - nurxona. Kitoblar inson umrining ... o‘tishiga, ... bo‘lishiga yordam beradi. 5. Kuzda qushlar bu joylar bilan ... janubga yo‘l oladilar. 6. Bobomiz Alisher Navoiyning ... bag‘ishlab, «Kitob bilim manbayi» mavzusida kitobxonlik kechasi o‘tkazildi. 7. Ibrohim bu yil Norin daryosini ko‘rishga.... 8. Bulutlar bo‘linib, ular orasidan quyosh ... socha boshladи.

Foydalanish uchun so‘z va so‘z birikmalari: *muyassar bo‘ldi, hayot olib, yeydi, ilmli, sermazmun, xayrlashib, tavalludiga, zarrin nurlarini, oq kiyimga*.



TIIAME

## **1-topshiriq. Savollarga og'zaki javob bering.**

1. O'zbek tilini qachondan beri o'rganasiz? 2. O'zbek tilidan birinchi o'qituvchингиз kim bo'lган? 3. O'zbek shoirlaridan kimlarni bilasiz? Yozuvchilardan-chi? 4. Siz o'zbek tili darsida nimalar qilasiz?

## **3- mashq. Berilgan gaplarni ona tilingizga tarjima qiling.**

1. Tog'ning ko'rki tosh bilan, odam ko'rki bosh bilan.
2. Kim birovga chuqur qazisa, unga o'zi yiqiladi.
3. Dangasaga ish buyursang, aql o'rgatadi.
4. Yigit kishiga qirq hunar oz.
5. Gapni kam so'zla, ishni ko'p ko'zla.



Markaziy Osiyo xalqlari Buyuk ipak yo‘li tufayli Sharq va G‘arb mamlakatlari iqtisodiyoti va madaniyati bilan oshno bo‘lganlar. G‘arb mamlakatlari xalqlari esa Markaziy Osiyo xalqlarining yuqori darajada rivojlangan madaniyatini o‘zlari uchun kashf qildilar. Markaziy Osiyo aholisi Xitoy shoyisini qadrt asa, Xitoyda Osiyo gilamlari, jun gazlamalari, hunarmandchilik buyumlariga talab katta bo‘lgan.





TIIAME



Buyuk ipak yo‘li Sharq va G‘arb mamlakatlari xalqlarining o‘zaro madaniy aloqalaridan bahramand bo‘lish imkonini berdi. Markaziy Osiyo bu yo‘lning asosiy yo‘nalishlari kesib o‘tadigan markazga aylangan. Bu yerga turli mamlakatlardan savdogarlar, hunarmandlar, olimlar va musiqa-chilar tashrif buyurar edi. Buyuk ipak yo‘li sharofati bilan Markaziy Osiyo xalqlari G‘arb va Sharqning iqtisodiy va madaniy yutuqlari bilan tanishdilar.



TIIAME

## Matn yuzasidan savollar:

1. Buyuk ipak yo‘lining ahamiyatini aytib bering.
2. Buyuk ipak yo‘li orqali qanday karvonlar o‘tgan?

### Bilib oling!

Badiiy uslub *aralash uslub* hisoblanadi. Chunki bu uslubda so‘zlashuv va kitobiy uslublarga xos o‘rinlar ham uchraydi. Badiiy asar kishiga ma’lumot berish bilan birga timsollar vositasida estetik ta’sir ham ko‘rsatadi.

*Masalan:* Kumush qish o‘z o‘rnini fasllar kelinchagi bahorga bo‘shatib berdi.



TIIAME

**4-mashq.** Berilgan so‘zlarni quyidagicha ajratib yozing.

*Kitobiy uslub:*

*So ‘zlashuv uslubi:*

Janjal, to‘polon, mojaro, g‘alva, g‘avg‘o, mashmasha, iste’mol qilmoq, totmoq, yemoq, tanovul qilmoq, olmoq, tushirmoq, umrbod, toabad, hijron, ayriliq, valdiramoq, gapirmoq, aloqador, taalluqli, tegishli, ayol, xotin, aylanmoq, sayr etmoq, avvalgi, oldingi, ilgarigi, burungi, adabiy, mangu, umrbod, avaylamoq, ayamoq, ehtiyotlamoq, e’zozlamoq, ardoqlamoq.



TIIAME

**5-mashq.** Gaplarni o‘qing. Badiiy uslubga xos bo‘lgan so‘zlarni toping.

1. Ilk bahor. Daraxtlar uyg‘onib kurtak yoza boshladи. 2. Havo sof va salqin. 3. Fitrat, Cho‘lpon, Qodiriy kabi ijodkorlarning nomi hamisha barhayotdir. 4. Bobodehqon yerga baraka urug‘ini ekish bilan band. 5. Hushyor bo‘lish har bir fuqaroning Vatan oldidagi muqaddas burchidir. 6. Onaga - eng ulug‘ zotga ehtirom chinakam insoniylik sanaladi.

**Uy vazifasi.** O‘zingiz yoqtirgan kitobdan badiiy uslubga xos bo‘lgan gaplarga 10 ta misollar yozib keling.



E‘tiboringiz uchun  
rahmat!